O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI CHET TILLAR FAKULTETI FRANSUZ TILI TA'LIM YO'NALISHI

Qo'lyozma

Matvafayeva Xurshida Sobirovna

GAPNING KOMMUNIKATIV KATEGORIYALARI

5220100- Filologiya (fransuz tili) bakalavr darajasini olish uchun taqdim qilingan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar: o'qituvchi Annamurodov Sh.

URGANCH – 2012

MUNDARIJA

KIRISH ----------3

I BOB. GAPNING GRAMMATIK KATEGORIYALARI-HAQIDA----------7

1.1 Grammatik va kommunikativ kategoriyalar tushunchasi haqida umumiy ma'lumot ----------7

1.2. Shaxs kategoriyasi---------- ----------9

1.3. Zamon kategoriyasi----------23

1.4. Madallik kategoriyasi----------32

1.5. Haqiqiylik kategoriyasi----------40

II BOB. GAPNING KOMMUNIKATIV KATEGORIYALARI----------47

2. 1 Maqsadga yo'naltirilganlik kategoriyasi ----------47

2.2. Infarmativlik kategoriyasi----------56

2.3. Emativlik kategoriyasi----------60

2.4. Nutq holati kategoriyalari----------62

XULOSA----------64

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR----------68

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin 140dan ortiq chet davlatlari bilan diplamatik aloqa o'rnatdi. Bu o'z navbatida mamlakatimiz

yoshlari oldida zamonaviy bilimlarni egallash, axborot texnologiyalari va chet tillarini bilish zaruriyatini yukladi .

O’zbekiston azaldan o’zining qomusiy bilimga ega olimlari , ilm-ma’rifat maskani ekanligi bilan jahon tamaddunida o’ziga xos o’ringa ega. Zullisanoyin shoirlar,bir necha tillarni biladigan buyuk mutaffakkirlar avlodidan ekanmiz bizning oldimizga ularga munosib avlod bo’lish ma’suliyatini yuklaydi.

Til o’rganish masalan avvla-avvladan paydo bo’lgan. Ma’mun akademiyasi tarjima maktabining dunyo ma’rifatiga qo’shgan xissasi Talego maktabinikidan aslo kam emas.

Shu ma’noda,biz yoshlar ham chet tillarini bilish barobarida, yetuk tilshunoslarning tilning turli aspektlari to’g’risida yozgan adabiyotlari, biron bir baxsli mavzu yuzasidan ularning nuqtai-nazarlari bilan tanishgan holda, o’z mustaqil fikriga ham ega bo’lishimiz kerak.Bu narsa bizning bitiruv malakaviy iahlarimizda o’z aksini topadi.

Men bitiruv malakaviy ishi uchun tanlagan mavzum fransuz tili grammatikaga tegishli bo’lib ”gapning kammunikativ katigoriyalari” deb ataladi.Bu mavzuni tanlashdan maqsad amaliy grammatika kursiga bir gaplarning sodda va qo’shma turlarini o’rganganmiz.Keyinchalik,sintaksisni chuqurroq o’rganganimiz sari predikatsiya gaplarning turlari haqida ham ko’proq ma’lumotga ega bo’la boshladik.

Ishning dolzarbligi shundan iboratki bu mavzuda juda ko’p ko’zga ko’ringan rus va fransuz olimlari xususan,B.Gak, Balli,Damuret va Pishonlar o’z fikrlarini bildirganlar va ular turli-tumanligi bilan ajralib turadi.Zamonaviy tilshunoslarning internetdan olgan fikrlariga tayangan holda shuni takidlashimiz kerakki bu mavzu bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qatmagan.

Shularni nazarda tutgan holda men o’z oldimga yetuk lingvistlarning mavzuga oid adabiyotlari bilan tanishib chiqishni,ularni qiyosiy o’rganishni va xulosalarni tahlil qilib,umumlashtirishni maqsad qilib qo’ydim.

Biz o’rgangyotgan til ya’ni fransuz tili ham dunyoning rivojlangan yetti davlatidan birining tili hisoblanadi.Shu o’rinda shuni ta’kidlab o’tish lozimki,hozirgi kunda tilshunoslik muommolarini qiyosiy o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi.Oldimizga qo’yilgan madsad va vazifalardan birisi fransuz

olimlari Sh. Balli, Damuret va Pishonlar, rus olimlari V.G.Gak, E.B.Royzenblit, fikrlari bilan tanishib chiqish edi.

Shu nuqtai nazardan biz bitiruv malakaviy ishimizni fransuz tilidagi gapning kommunikativ kategoriyalarni o'rganishga bag'ishlaganimiz bejiz emas. Mavzuni bu tartibda tanlanganligi uning dolzarbligini bildiradi.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi grammatik birliklarni leksik, semantik va kommunikativ darajada o'rganishdir. Mazkur ishimizda qiyoslash metodikasidan foydalandik. Uning maqsad va vazifalarining uning sturukturasini bermoqda.Ish kirish,ikki bob,xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.Birinchi bobda asosan mavzu yuzasidan umumiy ma'lumot berilib, ko'proq amaliy tomoniga axamiyat berilgan .Ikkinchi bobda nazariy ma'lumotlar ishning asosini tashkil etadi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati Fransuz tili grammatikasini o'rganishda V.G.Gakning kitoblari muhim ro'l o'naydi. Grammatika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib,morfalogiya va sintaksis uning asosini tashkil qiladi. Sintaktik (semantik) birliklarni o'rganishda V.G.Gakning ilmiy qarashlarini asosiy manba hisoblanadi.Ularga tayangan holda Damuret va Pishonlar nazariyalariga obyektiv munosabat bildirish imkonini tug'diradi.Ishimizning nazariy va amaliy ahamiyati ham talabalar mavzumizga ko'rib chiqilgan turli qonuniyatlar bilan tanishtrish uchun manba bo'lib xizmat qila oladi.Chunki fransuz tili o'rganayotgan talabalar grammatik konuniyatlarni faqat morfalogik va sintaktik darajada o'rganib ularning predikativ, kommunikativ munosabatlar haqida ham ma'lumotga egalar. Shu manoda bu bitiruv malakaviy ishimiz ularga amaliy qo'llanma bo'la oladi.

Mavjud materialni berishda mantiqiy ketma-ketlik, ya'ni oddiydan murakkabga yo'nalgan xolda boblar va fasillarni o'zaro bog'lab yoritilgan.

I-Bob Gapning grammatik kategoriyalari haqida.

1.1 Grammatik va kommunikativ kategoriyalar haqida umumiy ma'lumot

Gapning kommunikativ kategoriyalari kommunikatsiya aktning turli tomonlarini aks ettiradi.

Ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

So’zlovchiga yo’naitirilgan katigoriyalar

1. Voqelik belgisini ifoda qilish.Bunga:a) Haqiqat katigoriyasi (subyektga tegishli belgini tasdiqlash yoki rad qilish)

b)Modallik kategoriyasi (tor ma’noda va uning turli aspekrlarida(ehtimollik,aniqlik,ishonch,shubha,hohish,istak)

2.Nutq aktining strukrurasi:

a)Shaxs kategoriyasi

b)Deyksis yoki lokalizatsiya, ya’ni so’zlovchi pozitsiyasidan nutq akti ishtirokchilariga nisbatan holat elementlarini ifoda etish.

3. Emotivlik katigoriyasi

Tinglovchiga yo’naltirilgan kategoriyalar:

4.Nutqi maqsadiga ko’ra yo’naltirilganlik kategoriyasi,subkategoriyalarga bo’linadi: xabar,istak,tilak.

5. Informativlik kategoriyasi

6. Nutq holati kategoriyasi

a)muloqatning ijtimoiy aspekti (xushmuomilalik aspekti va boshqalar).

b)shakillarning funksional stilistik modifikatsiyasi. Barcha kategoriyalar bir-biri bilan o’zaro bog’liq.

Inson nutqi egosintrikdir : u gapirayotgan odamga nisbatan tashkil etiladi. Nutqning ba’zi elementlari so’zlovchi pozitsiyasiga bog’liq ravishda o’zgaradi. Parometrlarning bunday o’zgarishlari lokarizatsiya deb ataladi.Lokarizatsiya markazi men shu yerda hozir (moi, maintenant, ici)munosabatlari hisoblanadi. Lokalizatsiyaning uchta turi farqlanadi.

a) shaxsiy lokalizatsiyasi shaxs formasi nutq akti shaxsi roliga muvofiq qo’llaniladi.

Qiyoslang: Pierre a dit: Je viendrai

va Pierre a dit qu’il viendrait.

Nutqni so’zlovchi bilan emas balki boshqa shaxs bilan qo’llanilishi birinchi shaxsni uchunchi shaxsga almashtiradi.

b)zamon lokalizatsiyasi ikki zamon plani farqlanishida namoyon bo’ladi,nutq va allosentrik plan, hisob nuqtasi bilan bog’liq : Je fais, j’ai fait, je ferai,

aujourd’hui, hier, demain (nutq plani) va je faisais, j’avais fait,je ferais,ce jour-la la vielle le demain (allosentrik plan) ;

c) makon lokalizatsiyasi asosan ravishlar qarama-qarshiligida ifoda etiladi. Ici-là-bas (ular shaxs va zamonga bog’liq ravishda o’zgaradi) :Il a dit ;je ne viendrai plus ici= ammo : il a dit qu’il ne viendrait plus là-bas.

1.2. Shaxs kategoriyasi

Shaxs sintaktik katigoriyasi harakat yoki belgi tashuvchisi bilan nutq akti ishtirokchilari o’rtasidagi nisbatdir. U fe’ldagi morfologik shaxs kategoriyalaridan kengroqdir va nafaqat kesim shakillarida ifoda qilinadi.

Uni ifoda qiluvchi vositalar :

a) fe’ldagi morfalogik shaxs kategoriyasi :

Parlons !

b) kishilik olmoshlari: nous parlons-vous parlez! Il m’est difficile d’y croire. On se’n va ;
c) Ot-ega : Le train arrive
d) Majhuldagi agent to’ldiruvchi : Ce roman est écrit par Zola.
e) Harakat tashuvchisini ko’rsatuvchi egalik determentivlari : Qu’il sait parti m’a étonné. Son depart m’a etonné.
f) Jarayonli otga tegishli ot : Le président arrivera à 12 heures. J’arrivée du président aura lieu a 12 heures.
j) Nisbiy sifat : L’arrivée présidentielle.

Oxirgi uch usul naminalizatsiyada qo’llaniladi.

Semantik munosabatlarda sintaktik shaxs olmoshlarning ushbu kategoriyasiga mos keladi. 1,2,3 shaxs , noma’lum shaxs, umumlashgan shaxs va shaxssizlik farqlanadi. Bu ma’nolarning biridan boshqasiga o’tish subyekt haqida tasavvurlarni chetga chiqarish va asta-sekin umumlashtirish deb hisoblanadi.

Bunda quyidagicha subyektning semantik turlari farqlanadi :

1) konkret shaxsli subyekt
2) birlashgan subyekt
3) jamlama subyekt
4) shaxsi noaniq subyekt

5) umumlashgan subyekt
6) noaniq ko’rsatish subyekti
7) chetlashgan subyekt
8) subyektsizlik (shaxssizlik)

Eng aniq shaxs 1-shaxs. U nutqning makon zamon lokalizatsiyasida birinchi darajali rol o’naydi. Har qanday boshqa planga qarama-qarshi qo’yilgan moi-ici-mentenant plani u bilan bog’liq. Birinchi shaxs nafaqat boshqa shaxalarning aniqligi (toi,lui), balki ish harakatning vaqt munosabatlari ham bog’liq. 3-shaxsning aniqligi biroz kamroqdir, u noaniq obyektlar qatorini ko’rsatadi : je suis venu

Des hammes sont venus

Birlashgan subyekt qator bir turga mansub substansiyalarni birlashtiradi. U,,et,, bog’lovchisi,,avec,, predlogi, accompagne de, suive de, aide de sifatdoshlari yordamida hosil bo’ladi.

Qiyoslang : Toi et partirons plus tot.Le curé en chape, accompagné du mairie du viennent, avec tant le peuple, chercher le maire du palais, fe’lning ko’plikda qo’llanilishi ikkala shaxs ham yagona bajaruvchi ekanligiga guvohlik beradi. Jamlovchi subyektda shaxslarning ko’pligi birlik bilan ifoda qilinadi. Jamlovchi ega va kesimning moslashuvida ikkilanishlarini yuzaga keltiradi : Une multitude d’oiseaux plongeait vers nous ; Une foule des gens dirant qu’il est coupable.(24 ;36)

Og’zaki nutqda jamlovchi subyekt jonli shaxslarga taaluqli sa olmoshi bilan ifodalanadi. Une viticulteur, sa ne raisonne pas comme un metallo(6 ;327).Bu yerda predicative belgi butun obyektlar sinfiga yoyiladi.

Shaxsi noma’lumlik ma’nosi shaxsni chetlashtirishning keyingi bosqichidir. Bunday holatda shaxs noma’lum yoki tilga olinmaydi. U on olmoshi bilan ifodalanadi.(On sonne). Ammo shaxs qanchalik noma’lum bo’lmasin, uning aniq ekanligini ko’rsatuvchi element saqlanib qoladi.

Agar belgi barcha jonli narsalarni qamrab olsa , shaxsi umumlashgan ma’no paydo bo’ladi va yana on olmoshi bilan ifodalanadi.

Noma’lum ko’rsatgichli subyekt bajaruvchi shaxs yoki holatni umumiy ifoda qiladi va kesim orqali ma’lum bo’ladi.

Ça c’est drôle(8 ;357)

Si tu te rends compte de ce que sa significrait(6 ;327)

Bajaruvchi shaxsning chetlashtirishning keyingi bosqchi ça olmoshi orqali amalga oshiriladi. Noma’lum yoki nomi tilga olinmagan subyekt jonsiz bo’lsa, yoki gap atrofidagi muhit umumiy ko’rsatilganda : ça commence va nihoyat subyektning chetlashtirishning oxirgi bosqichi shaxssiz gaplar yordamida amalga oshiriladi :

Je niege

Je fait sombre formal ega bu yerda voqelikning hech qanday abyektini ko’rsatmaydi. Grammatik va semantik subyektlar.

Bu ikki tushuncha gapda mos kelmasligi mumkin. Grammatik shaxs ega shaklidir, semantik subyekt esa gapning mazmuni tegishli bo’lgan real bajaruvchidir.Semantik subyekt to’g’ridan–to’g’ri (ega orqali :tu dais mettre un costume noir), vositali (to’ldiruvchi orqali : Il te faut mettre un costume noire) ifodalanadi yoki tushurib qoldirilishi mumkin.

Oxirgi holatda semantik subyekt determenativlar orqali aniqlanadi : Il faut mettre ton costume noir(11 ;240), Le harard voulut qu’elle remarquât l’attitude de Riquet.Cette attitude était triste. (9 ;309) cette anaforik jihatdan predicat otga mos keladi : attitude Rique ga.Yoki holatdan kelib chiqadi : Le jour de l’emmenagement fut un beau jour = Le jour où il émménagaient.

2-shaxsga mos kelish undov intonatsiya orqali ifoda qilinadi :

Encore un petit instant !(= attendez...) (1 ;327)

Du courage (=ayez..)(16 ;329)

Boshqa holatdan aynan bir holat nutqning turli shaxslariga yo’naltirilgan bo’lishi mumkin : masalan : 1-shaxsga : Je te propose de nous promener un peu ; 2-shaxsga ; Veux-tu te promener un peu ? yoki umumlashgan (shaxssiz gap grammatik shaklida) :

Il ferait bon de se promener un peu

(par un temps pareil).

Ba’zan semantik subyekt metanimik ifodalangan bo’ladi ; bunda u ish-harakat joyi orqali ko’rsatiladi.

Les Français déjeunent a midi--- On dejeune à midi en France (on...en France= Les Français).

Noaniq shaxs. Noaniq shaxsni ifoda qilish vositasi markazi noaniq olmoq bo’lgan funksional maydonni hosil qiladi. Noaniq shaxsni ifoda qilishning quyidagi umumlisoniy vositalar mavjud :

1.Noaniq olmosh.Fransuz tilida bu-qu’elqu’un, certains va asosan bu ma’nolarni ifoda etishning asosiy shakli- on. Barcha boshqa vositalar ikkinchi darajali hisoblanadi.

2.Aniq shaxsdagi fe’l shakllari va olmoshlarini ko’chma qo’llash (14 ;36) Fransuz tilida bu usul qo’llanilmaydi. On manosida to’ldiruvchi funksiyasida kelgan vous va nous ga kelsak, ular noaniq emas umumlashgan shaxsni ifoda qiladi : Les gens qui vous réfusent tes choses qu’on desire, vous en donnent d’autres (8 ;357)

3. Semantik subyektini chetlashtirish. U jarayon yo’naltirishini o’zgartiruvchi va fe’l valentligini oshiradi. Bu konstruksiya yordamida amalga on bilan aktiv konstruksiyalarga tengdir.Ularga :- majhul konstruksiya : On a construit une maison- La maison est construite (on semantik subyekt yo’q, uning pazitsiyasi- la maison semantik obyekt bilan band qilingan)

--- shaxssiz : Il se vend (= on vend) de vieilles voitures au marché

--- Analitik kesimli konstruksiya : La maison est en construction ; faire, laisser, voir infinitiv konstruksiyalar

Il s’est vu décerner un prix littéraire

Le malfaiteur s’est arrêter à la frontiére.

Je me suis laissé dire que Paul a des chances d’être élu.

Fe’l semantikasiga bog’liq ravishda ega yo adresat yoki abyektni bildiradi.

4.Shaxsni formani infinitiv yoki jarayonli aylantirish . Shaxsning noaniqligi olmosh yoki possessiv yo’qligida aks etadi.

Qiyoslang : Je chante- mon chant- on m’entend chantet. On chante – le chant – l’entend chanter. On ne fume pas dans cette salle.

----- Ne pas fumer pas dans cette salle.

Subyektning noanqligi ko’p hollarda nominativ gap bilan ifoda qilinadi : Des cries (=On crie), shuningdek kesim pozitsiyasi fazoli fe’l bilan band bo’lgan egasi harakatni bildiruvchi,egasi jarayonli noma’lum bilan ifodalanadi :

Le combat se poursuit (= on continue à se battre)

Le travail a pris fin (= on a fini de travailler).

Umumlashgan shaxs. Shaxsi umumlashgan manoni ifoda qilishning asosiy shakli on va tous, tout le monde, chacun, personne olmoshlari hisoblanadi. Bu ma’noni ifoda qilishning qo’shimcha vositalari :

---- shaxsi aniq kishilik olmoshlari : vous, tu, nous,je ko’chma ma’noda : je pense, donc je suis.

----- shaxsi noaniq ma’noda subyektni chetlashtirish usullari :(majhul, olmoshli, infinitivli konstruktsiyalar nominalizatsiya) :La paix ne s’attend pas, elle se gagne(= On n’attend pas la paix, on doit la gagner) ; L’entrée est interdite (= Personne ne peut y entrer) ; Ce livre est facile a traduire (= tout le monde peutle traduire)

----- shaxssiz konstruktsiyalar : Il faut le faire vite----- On doit le faire vite.

Ba’zan shaxsi umumlashgan ma’noni shaxsi noaniq ma’nodan farqlash qiyin bo’ladi.

Masalan : Ici on parle anglais gapini umumlashgan suyekti deb tushunish mumkin (bu yerda ingliz tilida gapiradi yoki gapirishlari kerak), yoki shaxsi noaniq (bu yerda kimdir ingliz tilida gapiradi) deb qabul qilish mumkin. Umumlashgan ma’no fikrni umumlashgan yoki universal holda ifodalansa, shaxsi noaniq---- odatda xususiy ma’no anglatadi. Shuning uchun shaxsi umumlashgan shakli bilan uyg’unlashib ketadi (asosan bu présent absolu).

Shaxsi noaniq ma’no esa harakatni zamonda aniq ko’rsatib beradi.

Qiyoslang : On ne mange pas cela sans pain va

On mange cela sans pain (noanq shaxs)

Xususiy ma’nodagi gaplarda subyektni chetlashtirish (yoki uni noaniq ifodalash) ko’p hollarda natija manolarni keltirib chiqaradi ;

Cela a été mangé froid

Umumiy ma’nodagi gaplarda konkret subyektni chetlashtirish, ehtimollik, majburiyat bo’yoqdorligini keltirib chiqaradi va modal mano kasb etadi va har qanday subyekt shunday qiladi degan fikr uyg’onadi :

Cela se mange froid.

Boshqa tarafdan gapda modallik, inkor, cheklash mavjudligi umumlashgan ma’no qo’llashga olib keladi :Ici on ne parle qu’anglais.

Shaxssiz gaplar

Shaxssizlik real yoki xayoliy bajaruvchining butunlay yo’qligini ko’rsatadi.Shaxssiz gaplar turli strukturalarga ega bo’lib, tilda qator funksiyalarni bajaradi.

Shaxssiz gaplarning quyidagi struktura tiplari mavjud :

1) O’timsiz kesim bilan: Je pleut;
2) O’timli fe’l kesim bilan: Il arrive un train;
3) Ot- kesim bilan: Il est difficile de comprendre cela. Shaxssiz gaplari vositali to’ldiruvchi biriktirishi ham mumkin : Il lui faut un bon dictionnaire (Qiyoslang :Il me donne un dictionnire) Il lui est difficile d’y croire.

To’ldiruvchi sifatida (Ba’zi grammatislar uni séquence yoki exponsion deb ataydilar) ot, infinitivlar, ergash gaplar qo’llanishi mumkin : Il faut un ouvrier pour ce travail ; Il faut sortir ; Il faut que vous soyez là. Shaxssiz gaplarning quyidagi strukturalari bahslidir : a)il olmoshini tabiyati ;

b)fe’ldan keyingi bo’lak tabiyati ;

Il xususida uch xil fikr mavjud :

1)Shaxsli va shaxssiz il-bitta olmosh, uning funksiyasi fe’llarning sintaktik konstrukturasi orqali aniqlanadi.Qiyoslang :

Il arrive à+n (shaxsli)

Il arrive + n (shaxssiz)

2)Shaxsli va shaxssiz il-olmosh omonimdir ;

3)Shaxsli il-olmosh, shaxssiz il-fe’l morfemasi.Oxirgi nuqtai-nazarga kelsak, bu ikki shaklni qarama-qarshi qo’ymaslik kerak,ularni qo’llash umumiy qonuniyatlari o’xshash, agar biz je,tu,il yordamchi olmosh deb hisoblasak,il

ga ham shunday qarashimiz kerak.Boshqa tarafdan bu ikki il ni birlashtirmasligimiz ham kerak. Ular nafaqat distributsiyalari bilan (o'zlari kirgan strukturalar)avvalam bor o'zlarining kommutatsiyalari bilan farqlanadi.Biz ikkita elle ni farqlaymiz mustaqil va fe'l oldi : biri lui ga (je pense à elle, je pense à lui) ikkinchisi il ga (elle chante,il chante) kommutatsiya qiladi. Shuningdek ikkita il ni farqlash kerak : shaxslisi ils ga aylanadi : il arrive ici, ils arrivent ici, ikkinchisi yo'q. Il est arrivé un malheur. Shunday qilib, shaxsli va shaxssiz il ni omonim deb qarash maqsadga muvofiqdir.

Fe'ldan keyingi bo'lakga kelsak, an'anaviy fransuz grammatikasida shaxssiz il formal ega hisoblanadi, = séquense= mantiqiy ega=. Ekspansiyada ikkinchi darajada bo'lakning formal belgilari bor, ular vositasiz to'ldiruvchi kabi olmoshlar bilan almashtirishi mumkin.

F.Bryuno birinchilardan bo'lib bu gap bo'lagi vositasiz to'ldiruvchining bir turliligini isbotlagan. Damuret va Pishanlar shaxssiz konstruksiyalarning semantik tahlilida bir qadam oldinga tashladilar.

Il est venu deux personnes gapida ular il ni formal ega (ular temini bo'yicha- soutien) , deux personnes real subyent (répére) deb hisoblaydilar.

Deux personnes sont venus-shaxsli gapida soutien va répére mos tushadi va = soubassment= hosil bo'ladi. Lekin, ekspansiya o'z spesifikasiga ega : le, la, les olmoshlari uni kam hollarda almashtiradi. Qiyoslang :

Il me reste beaucoup d'amis---

Il m'en reste beaucop, lekin

Il me reste mon meilleur ami----

- Il me le reste. Ergash gap le neutre bilan emas, Subyektli ce bilan almashtiriladi :

Il suffit que... ---- cela suffit. Il le suffit emas.

(Qiyoslang : Il sait que... ---- il le sait).

Fe'ldan keyingi bo 'lakni shaxssiz fe'lga vositasiz to'ldiruvchi deb qarash kerak. Uning o'ziga xosligi shundan iboratki, u semantik darajada obyektni emas subyektni bildiradi.

Shaxssiz gaplar funksiyalari

Shaxssizlik leksik grammatik kategoriyalarni ifodalaydi : konstruksiyani qo'llash imkoniyani leksik cheklashlar bilan bog'liq . Shaxssizlikka munosabatiga ko'ra fe'llar ikki guruhga bo'linadi.

a) shaxsli (unipersonnels), faqat shaxssiz formada qo'llaniladi : il pleut, il niege ;
b) ikki shaklda ham ma'no tubdan o'zgarmasdan qo'llaniladigan fe'llar : (arriver, rester va sh.k). Shaxssizlik ularning grammatik kategoriyasi hisoblanadi. Shaxssiz gaplarning birlamchi funksiyasi—subyektsiz jarayonni ifoda qilishdir : tabiat hodisalari, atrof muhit holati.

Bu funksiyada o'timsiz bir shaxsli fe'llar qo'llaniladi : il pleut, il niege, être va faire bilan konstruksiyalar ; hodisalar to'ldiruvchi bo'lib xizmat qiladi : Il fait du vent ; Il fait brau ; Il etait nuit close . Il pleut tipida shaxssiz gaplarda shakl mazmunga to'g'ri kelmaydi : subyektsiz jarayon yordamchi ega il tufayli ikki sastovli gap ko'rinishini oladi.Shaxssiz fe'llarning ikkilamchi funksiyasi ma'lum subyekt bilan bog'liq jarayonni ifoda qilishdir. Ular bunda shu fe'llar ishtirokidagi shaxsli gaplarga sinonimikdir :

Qiyoslang : Un train est arrivé ----

Il est arrivé un train

Bu konstruksiyada qo'sh assimetriya ko'rsatiladi : ega pozitsiyasini hech qanday substansiyaga mos kelmaydigan yordamchi il egallagan, semantik subyekt to'ldiruvchi o'rnida.

Shaxsli konstruksiyadagi ega shaxssizda vositali yoki vositasiz to'ldiruvchiga mos keladi.

Il lui manque du temps (pour faire ce tr)

- Il manque de temps (pour ce travail)
- Le temps lui manque.

Shaxssiz konstruksiyalar faqat o'timsiz fe'llardan yasaladi. Qiyoslang : L'enfant court

→Il court un enfant ammo : L'enfant lit → Il lit un enfant.

O’timli fe’llar shaxssiz konstruktsiyalarda faqat ularning valentligi majhul yoki olmoshli forma bilan kamaytirilganda qo’llanilishi mumkin. Qiyoslang : Il dit que ... shaxsli konsruktsiya.

Il est dit que...,il se dit que...shaxssiz konstruksiya.Bu struktura sabablariga ko’ra izohlanadi. Il+V+N(shaxsli) va il+v+n(shaxssiz) omonomik konstruksiyalarda ikki xil shakli qo ‘llanilmaydi.Shaxssiz forma o’timsiz fe’lni xuddi o’timliga aylantirayotgandek,lekin bu o’timlilik soxta,chunki to’ldiruvchi ish-harakat obyektini emas,semantik subyektini bildiradi.

Semantik subyektni ega pozitsiyasidan olib, nofaol harakat anglatuvchi fe’l qo’llasak, shaxssiz konstruksiya ma’nosiga ko’ra majhul va on bilan qo’llangan aniq konstruksiyaga yaqinlashadi.

Shaxssiz konstruksiyada aktual bo’linishi uch xil bo’ladi.

Agar fe’l oldingi kontekst bilan bog’liq bo’lsa u temani, to’ldiruvchi remani hosil qiladi : Il nous reste encore (T) quelques minutes (R).

Ba’zan to’ldiruvchi – rema cheklovchi yoki ajratuvchi konstruksiyalar bilan qo’llanadi : Ici il ne se passent que des événements sans importance. Ce qu’ils nous faut, c’est de pouvoir rêver (18 ; 257). Ko’pincha asosan ekzictensigal fe’llarda butun shaxssiz konstruksiya yagona remani hosil qiladi : Dans cette ville (T) il y a de beaux jardins (R), nihoyat bo’linganda to’ldiruvchi- tema, fe’l qismi – remani ifoda qiladi.

Des compliments (T), il en pleuvait ce jour-là . Agar shaxsli konstruksiya, voqelikni tasvirlab, ega – aktantdan boshlab, shaxssiz uni binobarin subyektga bog’liq bo’lmagan stixiyali jarayon sifatida tasvirlab, keyinroq biron substansiya bilan bog’laydi.

Qiyoslang : Une averse est tombée va Il est tombé une averse.

Shuning uchun shaxssiz gaplarda jarayon mavjudlikni umumiy ifodalaydigan (il y a, il est, il reste), o’zgarish rivojlanishni ifodalaydigan (il se produit, il se forme, il s’éléve), harakat (il arrive, il tombé), fe’llari modusning turli qirralarini anglatuvchi (il est connu que, il est dit que, il faut, il est necessaire, il est plus prudent va hk.) fe’l va iboralari ko’p qo’llaniladi.

Umuman shaxssiz konstruksiyalar kuchli darajada leksikallashgan, chunki ularning ko’p foizi aynan bir xil fe’llar bilan qo’llaniladi : il y a, il reste, il faut, il

existe, il arrive va bir qator boshqalar. Shaxssiz konstruksiyalarda semantik kuchsizlanmagan fe'llarni qo'llash stilistik affektga ega. U subyektga bog'liq bo'lmagan stixiyali xarakter kasb etadi. Masalan Verlen she'rlarida : Il pleure dans mon coeur ...

1.3. Zamon va vid kategoriyalari

Gapdagi sintaktik zamon kategoriyasi fe'lning morfologik zamon kategoriyasi mos kelmaydi – ham ifoda planida, ham mazmun planida. Ifoda planiga kelsak, gapda ish-harakat zamoni va zamon munosabatlari zamonning leksik-grammatik maydonini hosil qiluvchi vositalar sistemasi orqali ifoda qilinadi. Sodda gapda bu maydon yadrosi bo'lib :

a) fe'lning kesimdagi zamon shakli : Il lit, il viendra;
b) Payt hollari quyidagilar bilan ifodalanadi : - ravishlar: hier, alors;

–ot, infinitiv, predlogli olmosh, bunda predmet N va olmosh fe'lini tushirib qoldirish mumkin: Dans la nuit, le vent grandit (comus);

Après avoir stationné quelques instants dans une contre-allée du Bois, la voiture rentra dans Paris. (20 ; 204) ; Un dine arriva un bon moment après lui (16 ; 329) = après qu'il fut arrivé ;

- predlogsiz ot bilan : Il travaille le soir ;
- payt ergash gapli qo'shma gap bilan : Quand il se réveilla ; le ciel était découvert (18 ; 327)

vaqt ifoda qilishning vositalari quyidagilar :

- predlogi N bilan ifodalangan aniqlovchi orqali : (les événements de la ville) va sifatlar : (antérieur, simultané, actual).
- Sifatdosh va ravishdoshli iboralar : Une fois parti, je ne reviendrai plus ; En débarquant, je l'avais déja remarqué (4 ; 94)
- Prefikslar (un ex-ministre, qiyoslang : un ancien ministre). Fe'l shakllari zamoni -chetlashganroq, ravishlar – konkretroq. Noma'lumlar yanada aniqroq ifodalaydi.

Mazmun planiga kelsak, ko'rsatilgan vositalar zamon xarakteri ma'nosini ifoda qiluvchi qator ma'noga ega. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin : nisbiy vaqt (zamon) xarakteristikasi va vaqtning sifat va miqdor xarakteristikasi : takrorlash,

harakatning uzun-qisqaligi. Birinchi guruh ma’nolarning ifodasini ko’rib chiqamiz :

Vaqt munosabatlari ma’lum hisob nuqtasidan kelib chiqib aniqlanadi. Bu nuqta xarakteriga bog’liq ravishda uch nisbiy zamon xarakteristikasi mavjud : absalyut / nisbiy zamon bir vaqtli / turli vaqtli ish-harakat aniq vaqt.

1. Absalyut / nisbiy vaqt. Bunday holda ish-harakat nutq momentiga nisbatan mo’ljallanadi, nutqning asosiy koordinatalari : maintenant – ici. Tanlangan hisob nuqtasi notiq bilan bog’lanib vaqt chizig’ini ikkiga ajratadi ; -gacha va –dan keyin. Shundan kelib chiqib uch vaqt davri paydo bo’ladi : o’tgan, hozirgi, kelasi. Hisob nuqtasining nutq momenti (maintenant) bilan mos tushishidan absolyut vaqtni tashkil etadi (fransuz tili grammatikasida bunday shakllar temps nynéga-centrik yoki orcentriques deb ataladi). Mos kelmasa nisbiy zamon (allocentriques yoki lorcentriques). Absolyut zamon markazi = présent = hisoblanadi. Nisbiy zamon markazini ba’zi olmoshlar (Damuret va Pishon, Klyum) imparfait boshqalari (Benvenist) passé simple deb hisoblaydilar. Boshlang’ich nuqta sifatida kelajakdagi ish-harakatdan oldingi ish-harakatni yoki o’tgan zamondagi kelasi zamon (conditionnel passé o’tgan zamondagi ish-harakatdan oldingisi).

Asosi oppozitsiya – hozirgi zamon plani va o’tgan zamon plani. U nafaqat fe’l zamonlari oppozitsiyasi, balki qator ravishlar bilan ham ifoda qilinishi mumkin.

2. Bir vaqtlilik / har xil voqelik bir zamon plani doirasidagi ish-harakatlar orasidagi aloqani aks ettiradi. Har xil vaqtlilik ish -harakatning oldin yoki keyin sodir bo’lganini anglatadi. Bu ma’no fe’l shakllari ravishlar orqali ifoda qilinadi (Un moment après, un peu plus tard,) ham shu vazifani bajaradi.(Avant les voyages, après dinec, pendant les repos)

Chiziqli fe’l zamonlari (imparfait,présent) tasvirda ish-harakatlarning bir vaqtliligini ko’rsatadi. Masalan, Il fait sans la pluie...

Des méches noires passaient sans sa perruque blances... Son maquillage lui dégouilahait sur les joues. Sa hatte lui sautait d’une épole a l’autre (6 ; 327)

Nuqtali zamonlar zanjiri bilan (asosan passé simple) ish-harakatlar ketma-ketligini aks ettiradi.

Il se baissa pour romasser les postiches (= un faux saursil), tâtonnat longuement dans l'ambre, dans la boue, s'acharna se mit à genoux s'aussi et finalement ne put se relever. (27 ; 34)

Imparfait takrorlanayotgan ish-harakatlar ketma-ketligini ifoda etishi mumkin. Il s'arretait, se secouait, inspectait le fond de la rue, d'où surgisait des temps en temps ... une voiture. Il se précipitait, levait un bras désespére (6 ; 327) O'tgan zamon planida qo'llanilgan hozirgi zamon ham voqealar ketma-ketligini ifoda etadi.

Tilshunoslarning ta'kidlashlaricha passé composé ish-harakatlar ketma-ketligini bera olmaydi.

3. Aniq vaqt ish-harakatning bajarilish momentini bildiradi, nutq aktiga bog'liq bo'lmagan shartli zamon bo'linishidan kelib chiqadi. U ko'proq quyidagi otlar bilan belgilanadi : en été, le soir, en avril, à trois heures.

Ko'pincha bir frazada vaqtni ifoda qilishning turli vositalari uchraydi : Il continua sa tournée et vers deux heurs, rediscendit, au moment de la grande chaleur. Fe'l ish-harakat vaqtini nutq momentiga (o'tgan zamon plani) nisbatan yo'naltiradi, vers deux heures aniq vaqtni ko'rsatadi, au moment de predlogi ibora bir vaqtlilikni bildiradi (quand il faisait très chaud).

Aniq vaqt va ish-harakatlar ketma-ketligi zamonda obyektiv ifodalangan, so'zlovchi bu yerda ifoda usulini o'zgartirishi mumkin, lekin mazmun planini o'zgartira olmaydi. P -1- ga kelsak, ish-harakat yo'nalishi nutq aktiga nisbiydir, u ham obyektiv berilgan bo'lishiga qaramasdan so'zlovchi nutq hisobini o'tgan yoki kelasi zamonga ko'chishi mumkin. Bu orqali stilistik effektlar yuzaga keladi.

Fe'l shakllari va hol o'rtasida ikki xil o'zaro ta'sir ko'rsatadi :

- semantik moslashuvda hol fe'l shakllari ifoda qilgan ma'noni aniqlashtiradi.

Il est arrivé hier à six heures.

- semantik moslashuv bo'lmaganda hol zamon shakllari ma'nolari ko'chishini ko'rsatadi :

Il part demain à six heures. Bu yerda Il part kelasi zamonni anglatib turibdi, chunki u yerda demain ishlatilgan.

Matndagi zamon shakllari

Fransuz tilining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, nutq uslubiga ko'ra zamon shakllari differensialashadi. Ba'zi zamonlar (passé simple, passe antérieur) faqat yozma nutqda qo'llaniladi, boshqalari esa (futur immediat formes surcomposées) og'zaki nutqda ko'proq ustunlikka ega. Bu fe'l shakllari qo'llanilishining umumiy tahlilini murakkablashtiradi.

Gazetalardagi zamon qo'llanilishi statistikasi ularni uch guruhga bo'lish imkonini beradi. 80 % barcha holatlar (present 47 %, passé composé 21%, imparfait 9,43%, futur simple 8,84%) kam qo'llaniladiganlar (passé simle 7,39%, plus-que-parfait 3,67%) ba'zan qolgan barcha shakllar 2,67% (futur immediat, passé immediat, futur va passé antérieur va boshqalar). Adabiy matnlar yoki drammaturgiyada bo'linish boshqacha bo'lishi aniq.

Zamonaviy fransuz adabiyotida o'tgan zamonni ifoda qilishning ikki asosiy usuli mavjud :

a) Asosiy zamonlar – passé simple va imparfai, passé composé dialogda qo'llaniladi. Plus-que-parfait va passé antérieur oldin o'tganlikni anglatadi.
b) Bayonning asosiy zamoni présent historique. Bunda oldin o'tganlikni passé composé bildiradi. Imparfait kam qo'llaniladi. Juda kam hollarda passé composé ham ifoda zamoni sifatida qo'llanilishi mumkin (qisqa hikoyalar, gazeta axborotlari)

Vid – ma'nolarini ifodalanishi.

Vid – jarayonning miqdor va sifat xarakteristikasidir. U ish-harakatni zamonda chegaraga yoki natijaga munosabatini aks ettiradi. Vid – jarayonning majburiy xarakteristikasidir. Tilda vid morfologok kategoriyasi mavjud emas ekan. U gapda turli darajadagi birliklar orqali sintaktik kategoriya hisoblanadgi. Vid ma'nosi gapda fe'l ma'nosining fe'l zamoni ma'nosi va unitarqatuvchilarning o'zaro ta'siri natijadida realizatsiya qilinadi.

Fransuz tilida vid ma'nolarini ifoda qilishda quyidagi vositalardan foydalaniladi :

a) fe’llarning o’z semantikasi avvalambor – chegarali va chegarasiz fe’llar farqi (partir, marcher) natijali va natijasiz fe’llar (trouver/chercher) ; affikslar (s’endormir/toussater).
b) Fe’l zamonlari qarama-qarshiligi : sodda va qo’shma liniyali va nuqtali
c) Fe’lning infinitiv bilan birikuvi (Il a cessé de lire) ot bilan (Il a fini sa lecture), gerondif bilan (Le mur va s’ecroulant); hol bilan (il parlait toujours).

Vid ma’nolarini aniqlashning qiyinchiligi shundan iboratki sintaktiklik vid ko’p qirrali hodisadir. Turli vositalar bilan nutq ifoda qilinganda vid ma’nolarning bir necha ko’rinishi vujudga keladi. Jarayonning vid xarakteristikasi jarayonning o’zi bilan chambarchas bog’liq : ya’ni faol harakatni yoki holatni.

Zamonaviy grammatika nazariyasida vid ma’nolarining ko’p qirraliligini aks ettirishga harakat qilishmoqda. A. Bonnar 5 guruhga bo’luvchi 12 vid ma’nosini ajratib ko’rsatadi :

1. uzoq muddatli bir martalik, ko’p martalik
2. tugallanganlik / tugallanmaganlik, ikki marta yakunlangan, sodda, qo’shma va o’ta murakkab zamonlar
3. bo’laklarga bo’lingan va butun (imperfekt) va nuqtali zamonlarning qarama-qarshiligi
4. boshlanuvchi va terminativ (se mettre à, finir)
5. yaqin va muqarrar ish-harakat (immediat zamonlar) B.Potie gapda vid kategoriyasini ish-harakat boshi (déroulement) ga ko’ra bosqichning uch aspekti :

1-bosqich (je vais, je suis en train, je viens de manger) ;

2-bosqich = holat o’zgarishi = (je me mets à, j’arrete de crier)

3-bosqich = ish-harakatning ikki momenti mosligi (Il dort deja, encore)

Gapning vid ma’nolari orasida quyidagilarni farqlash mumkin :

a) Ish harakat usullari :lokalizatsiya, intensivlik va jarayoninh boshqa tomonlari. Ular affikslar orqali ifodalanadi :soutiller (yumshatuvchi-interativ usul) relire (takroriy ish harakat) ;

b) Ish harakatning miqdoriy xarakteristikasi : bir martalilik/ ko’p martalilik. Davomiy quyidagi fellar orqali ifoda qilinadi :continuer de, rester (il reste assis) toujours ravishi orqali, être en train de, être a + inf kabi kanstruksiyalar orqali,être en train de, être a+.Ko’p martalik ish harakat sufikslari :clignoter fe’lining ko’plikdagi noma’lum bilan birligi :faire de petits souts (=soutiller) imperfekt,quelque fois kabi holler va h.k.
c) Jarayon fazasi :boshlanishi/yakunlanishi. Boshlanuvchi vid commencer, se mettre à fe’llari s’enflammer prefikslari s’enflammer, nuqtali zamondagi fe’l bilan Il chanta. Ternimativ ma’no cesser, finir de va h.k fe’llari bilan ifoda qilinadi.
d) Ish-harakat vaqtining yakunlanganligi. Chegarasiz fe’llarning nuqtali zamoni bilan ifoda qilinadi : Il a dormi toute la nuit ;
e) Ish-harakat sifati yakuni, natijalilik chiziqli va nuqtali fe’llar qarama-qarshiligi orqali ifoda etiladi : Pierre lit / a lu ce livre arriver à kabi fe’llar
f) Ish-harakat / holat : Pierre a blessé Paul. Sanab o’tgan ma’nolar Paule est blessé bir-biridan yaqqol chegaralanmaydi : miqdoriy xarakteristika intensivlikka, terminativ natijaga erishishda o’tishi mumkin. Masalan, je trouve un livre – gapni tipik emas, chunki fe’lning natija ma’nosi hozirgi zamon bilan mos emas. J’ai trouve un livre utile to’g’ridir, chunki fe’l ma’nosi passé composé ma’nosiga mosdir. Shu bilan birga. Dans cette librairie, je trouve toujours des livres utiles – gapi ham to’g’ridir, chunki gap ko’p martali harakat to’g’risida ketyapti va u fe’lning chiziqli ma’nosiga mos keladi.

1.4. Modallik kategoriyasi

Sintaktik modallik kategoriyasi fe’lning morfologik mayl kategoriyasidan kengroqdir. U ifoda shakllari va ifoda etgan ma’nolarning gammasiga ko’ra rang-barangdir. Modallik kategoriyasi so’zlovchining nutq mazmuniga va nutq mazmuning voqelikka munosabatini aks ettiradi. Modallikda subyekti nutq momenti, obyektiv borliqning so’zlovchi onggida ko’rinishi namoyon bo’ladi. Fransuz tili grammatikasida modalllik kategoriyasi tarkibi va unga kiruvchi faktlar hajmi to’g’risida yagona fikr yo’q. Murakkabligi shundaki, lingvistik modallik logik modallikka to’liq mos kelmaydi. Loginado modallik

ma’lum axborotga bog’liq fikrlash xarakteristikasi hisoblanadi. Binobarin, aynan logika modal ma’nolarining turli tipologiyalari taqdim etiladi, til materiali unga o’z murakkabliklarini qo’yadi. Bir fikrda bir necha modal ma’nolar turli usullar bilan ifoda etgan bo’lishi mumkin.

Ba’zan modallik keng tushuniladi. Unga ifodaning barcha shakllari kiradi. Bular aniqlik / muammolilik va so’zlovchining unga munosabatini aks ettiradi. Bunday holatda modallikda:

1) fikrning maqsad sari yo’naltirilganligi: darak, so’roq, undov;
2) haqiqiylik ya’ni tasdiq / inkor (birinchisi voqelikni tasdiqlaydi)
3) so’zlovchining fikriga munosabati, uning axborotining borliqqa munosabati bahosi(aniqlik, zaruriyat, imkoniyat, xohish-istak);
4) fikrning ekspressiv belgilari (turli his-tuyg’ularni ifoda qilish: umid,kutish, hayrat, norozilik va h.k)

Zamonaviy fransuz tili grammatikasida 1), 2), 4) qarashlarni alohida sintaktik kategoriyalarga 3) ni esa sintaktik modallikka ko’proq mansub degan fikr ustunlik qiladi.

F. Bryuno modallikni so’zlovchining fikr ustidagi operatsiasi deb qaraydi. U modallikni uch katta guruhga ajratadi:fikrlash ,his-tuyg’u va iroda modalligi, har bir holatda ikki kategoriya ajraladi;aniqlik va ehtimollik. O’z kitobida u fransuz tilida qo’llaniladigan turli vositalarga ta’rif bergan.Bryunoning mudallikga turli his-tuyg’ularni(umid,kutish,tashvish,hayraet,rozilik,qoniqish,befarqlik,rad qilish,afsuslanish,g’azab va h.k) kiritishi ko’zga tashlanadi. Bu qarashlarni akademik V.V.Vinogradov tanqid qilgan.

SH.Balli Bryunoning qarashlarni chuqurlashtirdi va til materialni tartibga soldi. U ham modallikning uch umumiy turini farqladi: inteliktual fikrlash, afektiv baho va xoxish istak. Balli g’oyalari hozirgi tilshunoslar tomonidan o’zgacharoq shaklda rivojlantirmoqda. Nutqda ikki aspekt farqlanadi: énociation va énoncé. Bularning har biri o’z modalligiga ega. Nutq aktning modalligi (modalite d’énociation) suhbatdoshlarning o’zaro munosabatini aks ettirib nutqning komunikativ yo’nalganligini ko’rsatadi:xabar,so’roq,buyruq. Diktum modalligi (modalite d’énoncé) so’zlovchi nuqtai nazaridan faktga

baho beradi. Modal ma’nolarining nomenklaturasi xususida yagona fikr mavjud emas.

E.Benvenist modallikning uch turini farqlaydi: bo’lishi mumkin bo’lgan,mumkin bo’lmagan,zarur. B.Potye 8 modal kichik guruhini ta’riflaydi: undov (je veux, je dois), mumkunlik (je peux), qabul(je crais, je vois), axborot (je dis, je promets), baho (il est bon), ruxsat (je permets), kayzatsiya (je fais), qaror (je homme). Ko’plab fransuz lingvistlari avvalambor savoir, pouvoir, vouloir, devoir fe’llar ifoda qilinadigan modal ma’nolarni tadqiq qiladilar.

Modal ma’nolar asosida, so’zlovchining nutqqa munosabatini aks ettiruvchi ma’nolar yotadi:aniqlik/mumkinlik va qabul qilish/qilmaslik. Birinchi ma’no predmetning so’zlovchiga bog’liq bo’lmagan obyektiv belgilarni aks ettiradi, lekin predmet haqida subyektiv ma’nolarni ham eks ettiradi. Ikkinchi ma’no subyektivdir, u so’zlovchining voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabatini ko’rsatadi. Modallik nutqning turli bo’laklariga (modus va diktum) tegishli bo’lishi mumkin.

Sintaktik modallikni ifoda qilish usullari:

Asosiy vositalar: a) fe’l mayllari

c) modal so’zlar va yuklamalar

d) modal fe’lar (je dis que, je sais que, je veux que)

e) intonatsiya

Qo’shimcha : so’z tartibi (Puisiez – vous dire vraible)

-ble da tugagan sifatlar : (c’est incroyable = on ne saurait croire cela), o’zbek-majhul konstruksiya : cela ne se dit pas = on ne doit pas dire cela)

Axborotning voqelikka munosabati.Bu modallik diktumga kiradi. Asosiy ifoda usuli – fe’l mayllari, asosiy ma’nosi aytilayotgan fikrning sodir bo’lishi yoki bo’lmasligi. Fakt yo real (il vient, il est venu), yoki noreal, biror holatga bog’liq bo’ladi. (il viendrai, s’il avait le temps). Modallikning bu turi grammatik jihatdan ega, semantik jihatdan so’zlovchiga mos bo’ladi. Subyektning o’z hayotiga munosabati. Bu modallik ham diktumga kiradi. Modallikning oldingi turidan farqli ravishda u faqat harakat subyektiga mos keladi va so’zlovchi munosabatiga bog’liq emas. To’rtta kategoriya mavjud :

a) amalga oshirish. Bu ma’no o’ziga xos vositalar bilan ifoda etilmaydi.
b) Mumkinlik, qodirlik. Pouvoir fe’li ma’lum tashqi shartlar bilan qila olishlikni bildiradi. Il peut entrer, il peut dormir ; savoir fe’li ish-harakat bajarishga ichki qobiliyatni bildiradi : il sait lire (lekin il sait dormir deyish mumkin emas)
c) Zaruriyat, majburiyat, devoir fe’li : il doit venir. Ish-harakat bajarishi subyekt yoki undan tashqari bo’ladi. Qiyoslang : il peut venir (il veut venir lui meme). Il doit venir (quelqu’un veut qu’il vienne)
d) Istak/istamaslik : Il veut venir :Il a accepté de venir.=Istak= manosi aniq /majhul munosabatida bo’ladi.

Asosiy madal manolar turli ma’no qirralarini namoyon etib kombinirlashishi mumkin.Ballining ta’kidlashicha craindre mumkinlik va qabul qilmaslikni,espérer esa imkon va istakni ifoda etishi mumkin.Qo’shma fe’l kesimda ham ma’no kombinirlashishi mumkin ;Il doit pouvoir faire cela.Ifodaning asosiy vositasi-modal fe’llar.Qo’shimchalari-o’zlik-majhul konstruktsiyalar(cela ne se fait pas),infinitivlar(ce livre est à lire)adjektivlar(ce livre est introuvable).Modallikning yuqoridagi ko’rinishida kesim jonsiz ega bilan qo’llanishi mumkin.Lekin semantik darajada ish-harakatni bajarishni xoxlovchi,majbur yoki bajara olmaydigan nazarda tutiladi.

So’zlovchining(yoki boshqa shaxsning) xabarga munosabati.Bu modallik modusga mansub bo’lib,baho va fikr ifoda qila oladigan jonli subyekt bo’la oladi.Ifodaning asosiy vositasi-modus fe’li va modal so’zlar.Bu munosabatlar uch aspektni o’z ichiga olib ergashgan qo’shma gapning bosh gapida namoyon bo’ladi.

1. Ma’lumot xarakteriga ko’ra :
   a) deklarativ modallik ; nutq akti haqida neytral shaklda axborot beriladi : Je dis que Pierre viendra ; shuningdek, affirmer, nier, declarer. Bunga so’roq modusini ham qo’shish mumkin : Je demande si Pierre viendra ;
   b) performativ modallik : nutq akti jarayonni ham ko’rsatadi : J’ordonne que Pierre vienne. Je promets qu’il viendra ; shuningdek prier, jurer, demander va boshqalar
2. Voqelikni bilish xarakteriga ko’ra :

a) ishonchlilik ; U bilish va qabul qilish fe'llari orqali ifodalanadi (Je sais, je vois que ;
j'entends que).

b) ehtimollik : je suppose, je doute, je crois, je pense. Umumiy ma'noda (je sais, je pense) moduslari tushirib qoldiriladi. Je dis que je sais (yoki que je pense) qu'il viendra o'rniga oddiygina il viendra

3. Munosabat xarakteriga ko'ra

a) hohish / hohlamaslik : Je veux qu'il vienne ; Je vous défends de venir ; venez

b) rozilik/ norozilik, subyekt his-tuyg'ulari ifodasi bilan bog'liq : Je me réjous, je me désole qu'il vienne.

Modus modallikni ifoda qilishning ikkilanuvchi usullari quyidagicha hosil bo'ladi :

1)Modus subyektini olib qo'yish orqali. Bunda fe'l shaxssiz fe'l yoki sifatli iboralarga almashtiriladi : Je crois qu'il viendra → Il semble qu'il vienne ; je veux que Pierre vienne → Il est désirable que Pierre vienne.

2)Modus fe'lining traspozitsiyasi, u sifat yoki ot bilan almashtiriladi :

Je me réjous qu'il vienne →

Je suis heureux qu'il vienne

On ne doute pas qu'il ne vienne →

Iln'y a pas de doute qu'il ne vienne

3)O'zgarish diktumga ham ta'sir qiladi, modus va diktum bir gapda ifoda qilinadigan : modallik

a)kirish so'z bilan ; je crois qu'il est malade

→Il est malade probablement.

Je suis heureux qu'il est venu →

Heureusement, il est venu ;

b)Qo'shma fe'l kesim orqali : Je veux que vous veniez demain → Je veux vous voir venir demain. Pierre semble pouvoir faire cela gapida semble fe'li modus modalligiga, pouvoir – diktum modalligiga tegishli.

c) Egada, ot-kesimda : je désire que Pierre vienne →Mon désire est que Paul vienne – la venue de Paul est désirable.

d)Qo’shma fe’l kesimdagi modal fe’l bilan u imkoniyatlar zaruryatini emas (diktum modalligi), ehtimollikni (modus madalligi) bildiradi. Bu pouvoir va devoir fe’llariga tegishlidir. Birlamchi ma’nolarida ular qila olishlik va majburiyatni anglatadi : Il peut mécrire, il doit partir. Gap bo’lib o’tgan voqea xususida bo’lsa, ular ehtimollikni anglatadi : Qiyoslang : Je peux (pouvais) metromper

